| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.<br>7. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018<br>8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – 464 b.<br>9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.<br>10. Mirziyoyev Sh.M. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son<br>9. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2023.<br>10. O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: 2021.<br>11. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426-modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son)<br>12. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" qonuni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 15-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda)<br>13. Qosimov B. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (izohli, ko'rgazmali vositalar to'plami). – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2001.<br>14. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2002.<br>**Axborot manbalari:**<br>http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb sayti.<br>http://www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.cspi.uz – Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti<br>www.natlib.uz - (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "  " _____dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>**G.G'. G'affarova** - CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**B.M. Qandov** - CHDPU, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)<br>**M.X.Borotov** – O'zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlari doktori, professor |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
______________________
2024 yil “___” __________

# OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 70112102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (huquq ta’limi) |

**Chirchiq – 2024**

| Fan/modul kodi<br>OPTMFO'M 1105 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>1 | ECTS - Kreditlar<br>5 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>**Majburiy** | **Ta'lim tili**<br>**O'zbek** | | **Haftadagi dars soatlari**<br>**4** |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | **Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi** | 60 | 90 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad – "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanini o'qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga fanlar, ularni o'rganish va o'qitish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy, tajribaviy izlanishlarni rejalashtira olishni, maxsus adabiyot, meyoriy hujjatlarni o'rganib, xulosa va tahlil qila bilishni o'rgatishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari:**

- magistrantlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish;
- ularda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qila olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- bo'lajak magistrlardagi jahon ilmiy axborotlari (jumladan INTERNET tizimi) dan foydalanish, mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish, ilmiy izlanishda echimlari eng qulay va sodda variantlarni topa bilish va amalga joriy etish qobiliyatini rivojlantirish;
- ularga axborot xurujlari, ma'naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, ularning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish metodlari, usul va vositalarini o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari**

"Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining tadqiqot doirasi. Tadqiqot tamoyillari va metodlari. Mutaxassislik fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining asosiy ko'rinishlari, sohalari va tarkibiy tuzilishlari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish tamoyillari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Talaba yoshlarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining o'rni va roli. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tabiq etishning dolzarb masalalari.

| | |
|---|---|
| | **2-mavzu: Oliy va professional ta'lim muassassalarida "mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" dan dars olib borish metodikasi**<br>Mutaxassislik fanlarini o'qitishning shakl va metodlari: ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlari, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, ilmiy pedagogik faoliyatini tashkil qilish, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, talabalarning mustaqil ishlari.<br>Ma'ruzaning didaktik maqsadi; didaktik maqsadiga ko'ra kirish, tematik va umumiy yakuniy ma'ruzalar.<br>Amaliy mashg'ulotlarning asosiy me'yoridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi xarakter bilan namoyon bo'lishi ekanligi, bu jarayonda bilimlar chuqurlashtirilishi, kengaytirilishi va detallashtirilishi.<br>Uzluksiz ta'lim tizimini insonparvarlashtirishning tarbiyaga ta'sirini, eski mafkuradan insonlarning halos bo'lishini tezlashtirish uchun barcha ishlarni tezlashtirish lozimligini ko'rsatish zarurligi.<br>**3-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonining tuzilishi va shakllari**<br>Mutaxassislik fanlarini o'qitishning shakllari va tuzilishi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, o'quv amaliyoti, malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasining ilmiy asoslari.<br>Mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllarining o'zaro aloqadorligi, umumiy va o'ziga xos farqli jihatlari. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonini tashkil etishda o'qitish shakllarini hisobga olishning ahamiyati.<br>Davlat ta'lim standartlari. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" ta'lim yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrninig tayyorgarlik darajasiga qoyiladigan talablar. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuziladigan namunaviy va ishchi o'quv rejalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi.<br>**4-mavzu Mutaxassislik bo'yicha Davlat ta'lim standarti, o'quv reja, fan va ishchi dasturlarni o'rganish**<br>Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. Baho me'erlari taksonomiyasi. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishning integratsiyalashgan ta'lim dasturi tuzilmasi. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining zaruriy mazmuni.<br>Ma'naviyat asoslari yo'nalishi zaruriy mazmuni va magistrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar. Ta'lim dasturini amalga oshirish. Magistratura bosqichiga tayyorlash sifatini nazorat qilish.<br>Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi bakalavriat yo'nalishi bo'yicha tuziladigan namunaviy va ishchi o'quv rejalarni o'rganish. |

Mutaxassislik fanlarining namunaviy va ishchi dasturlarini o‘rganish.

**5-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Davlat va huquq nazariyasi asoslari” faning o‘qitilishi**

Davlat va huquq nazariyasi fani predmeti va vazifalari. Davlatning ta’riflari. Davlat mohiyatiga bog‘liq nazariyalar. Davlatning kelib chiqishida mulk va tabaqalashuvning roli. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risida: ilohiy, patriarxal, shartnoma, irrigatsiya, sinfiy, islom nazariyalari.

Davlatning asosiy belgilari. Davlat funksiyalari tushunchasi. Ichki funksiyalari: regulyativ va qo‘riqlash funksiyalari. Tashqi funksiyalari. Davlat shakli tushunchasi. Boshqaruv shakllari: monarxiya va respublika. Davlat tuzulishi: unitar davlat, federativ davlat, konfederatsiya, siyosiy rejimlar. Antidemokratik rejim belgilari.

Jamiyat tushunchasi. Fuqarolik jamiyati ta’rifi. Fuqarolik jamiyati belgilari. Fuqarolik jamiyati tarkibi va institutlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish asoslari. Huquqiy davlat ta’rifi va belgilari. O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish asoslari.

Huquq ta’rifi. Ob’ektiv va sub’ektiv huquq. Huquqning asosiy belgilari. Huquq kelib chiqishiga doir nazariyalar. Huquq funksiyalari. Huquq me’yor (norma)lari tushunchasi, belgilari va tuzilishi. Huquq institutlari. Huquq tizimi va tarkibi. Ommaviy va xususiy huquq. Xalqaro huquq.Huquq tarmog‘i tushunchasi va belgilari. O‘zbekiston huquq tizimi.

Huquq manbalari tushunchasi va turlari. Normativ huquqiy hujjatlar tushunchasi va turlari. Konstitutsiya, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari hujjatlari ahamiyati. Huquqiy munosabatlar ta’rifi. Huquqiy munosabatlar omillari. Huquq sub’ektlari va ob’ektlari. YUridik faktlar. Qonuniylik va huquqiy tartibot. Huquqbuzarlik ta’rifi va belgilari. Huquqbuzarlik turlari. YUridik javobgarlik va uning turlari.

**6-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ma’muriy, qishloq xo‘jalik va ekologiya huquqi asoslari” kursining o‘qitilishi**

Ma’muriy huquq predmeti. Ma’muriy huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlar turlari. Ma’muriy huquqning boshqa huquq fanlari bilan aloqasi. Ma’muriy huquq manbalari. Umumiy va maxsus qonunlar. O‘zbekiston Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Ma’muriy huquq normalari tushunchasi. Ma’muriy huquqiy munosabatlar. Vertikal va gorizantal huquqiy munosabatlar. Fuqaro va boshqaruv organlari. Ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi, uning tarkibi. Ijro hokimiyati muhim xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. Markaziy maxsus vakolatli ijro etuvchi organlar. Vazirliklar, davlat qo‘mitasi, davlat idoralari tushunchasi. Ma’muriy majburlov tushunchasi, uning maqsadi. Ma’muriy majburlov choralari. Ma’muriy oldini olish choralari. Ma’muriy cheklov choralari turlari. Ma’muriy tiklovchi choralar. Ma’muriy javobgarlik sub’ektlari. Ma’muriy huquqbuzarlik tushunchasi. Ma’muriy javobgarlikning asosiy xususiyatlari. Ma’muriy jazo va uning turlari.

Ma'muriy jazoni qo'llovchi davlat organlari.

*Ekologiya huquqi* predmeti. Tabiat va uning ob'ektlari yuridik tushunchasi. Ekologiya huquqi tizimi. Ekologiya huquqi bilan aloqador huquq tarmoqlari. Ekologik xavfsizlik. Ekologiya huquqi manbalari. Umumiy, maxsus va alohida manbalar. Umumiy tamoyillar. Maxsus tamoyillar. O'zbekiston Respublikasi ekologik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Nodavlat ekologik harakat. O'zbekistonda siyosiy tizimning ekologiyalashuvi. Strategik dasturlar va loyihalar. I. Karimov asarlarida ekologik xavflar manbalari va ularni bartaraf etishga doir ko'rsatmalar.

Tabiat ob'ektlarining huquqiy maqomi. Tabiat ob'ektlari mulk huquqi ob'ektlari sifatida. Foydalanish huquqi tushunchasi. Alohida muhofaza qilinadigan tabiat ob'ektlari. Atrof - muhitni muhofaza qilish usullari. Huquqiy usullar: huquqiy talablarni belgilash orqali; normativlar, standartlar belgilash orqali, litsenziyalashtirish; iqtisodiy huquqiy mexanizmlarni belgilash; ekologik monitoring yuritish va ekologik ekspertiza o'tkazish orqali; nazoratni amalga oshirish orqali. Ekologiya nazorati tushunchasi. Tekshirish, o'rganish, kuzatish va h.k. Davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik ekologiya nazorati. Davlat ekologiya nazoratini maxsus amalga oshiruvchi organlari. Ekologik normativlar turlari. Turg'un va harakatlanuvchi ob'ektlar uchun normativlar. Atrof-muhit sifati normativlari. Ekologik ekspertiza maqsadlari va ob'ektlari. Iqtisodiy huquqiy mexanizmlar. Ifloslantirganlik uchun to'lov to'lash. Iqtisodiy rag'batlantirish mazmuni va turlari. Ekologiyada yuridik javobgarlik tushunchasi. Ekologiyada huquqbuzarlik asoslari. Ekologik yo'qotishlar. Jinoiy, ma'muriy, fuqarolik (moddiy) javobgarlik.

*Qishloq xo'jalik huquqi* predmeti, uning o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jalik huquqiy munosabatlari, ularning turlari. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bilan bog'liq munosabatlar: mahsulot etishtirish, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya qilish va h.k. Qishloq xo'jaligi korxonalari tushunchasi. Ular faoliyatining huquqiy asoslari. Qishloq xo'jaligi shirkatlari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, boshqa tadbirkorlik sub'ektlari. Yordamchi xo'jaliklar va fuqarolar tomorqalari. Qishloq xo'jaligida shartnoma munosabatlari. Shartnomalar turlari. Ijara shartnomasi. Kontraktatsiya shartnomalari. Kredit shartnomalari. Qurilish pudrati shartnomasi. Qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvi tushunchasi. Davlat boshqaruv organlari faoliyati asosiy yo'nalishlari. Boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari: tabiiy omil, ishlarning mavsumiyligi, majmuaviylik omillari. Qishloq xo'jaligida mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish. Mehnatning o'ziga xos xususiyatlari. Oila pudrati. Shirkat xo'jaligida mehnat. Fermer xo'jaligida mehnat.

**7-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Fuqarolik huquq va moliya huquqi asoslari" fanining o'qitilishi**

Fuqarolik huquqi tushunchasi, tizimi va tamoyillari. Fuqarolik huquqining manbalari. Fuqarolik huquqiy munosabat tushunchasi. Fuqarolik huquqining sub'ektlari. Fuqarolik huquqining ob'ektlari. Bitimlar. Muddatlar. Mulk huquqi. Mulk huquqining turlari. Mulk huquqini himoya qilish. Majburiyat huquqi. Majburiyatlarning turlari. Majburiyatlarning vujudga kelishi va bekor bo'lish

asoslari. Majburiyatni ta'minlash usullari. SHartnoma huquqi. SHartnomalarning alohida turlari. Mualliflik huquqi.

*Moliya huquqi* predmeti. Moliya atamasi tushunchasi. Moliyaviy munosabatlar. Moliya huquqi manbalari. Maxsus qonunlar. Moliya huquqiy munosabatlarining xususiyatlari. Moliya huquqining hokimiyat xususiyati.

Moliyaviy nazorat tushunchasi va vazifalari. Nazorat ob'ektlari. Moliya intizomi. Moliyaviy nazorat tizimi. Umumiy nazoratli va maxsus nazoratli organlar. Auditorlik faoliyati. Tashabbusli va majburiy audit tekshiruvi.

Bank tushunchasi. Banklarning asosiy vazifalari. Bankning: a) korxona; b) savdo korxonasi; v) vosita korxonalari; g) birja agenti; d) kredit muassasasi sifatidagi vazifalari. Bank tizimi. Markaziy bank, tijorat banklari va ixtisoslashtirilgan moliya muassasalari.

Byudjet huquqi tushunchasi. Davlat byudjeti tizimi. Daromadlar va xarajatlar. Davlat maqsadli jamg'armalari. Byudjet manbalari.

Soliq huquqi tushunchasi. Soliqlarning xususiyatlari. Soliqlar va bank majburiy to'lovi turlari. Soliq prinsiplari - majburiylik, beg'arazlilik,joriy etish va undirib olishning tartibini belgilash.

### 8-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Oila huquqi asoslari" fanining o'qitilishi

*Oila huquqi* predmeti. Oilaviy munosabatlarning turlari. Oila huquqi sub'ektlari. Oila huquqi munosabatlari prinsiplari. Oila huquqi manbalari. Oila kodeksi.

Nikoh tushunchasi. Nikoh tuzish shartlari: yosh, muomala layoqati, boshqa nikohda bo'lmaganligi, yaqin qarindosh emasligi va h.k. Fuqarolik nikohi.Tibbiy ko'rik. Soxta nikoh. Nikoh shartnomasi. Nikohni tugatish.

Oilaviy mulk tushunchasi. SHaxsiy mulk predmetlari. Moddiy ta'minot majburiyati. Aliment undirish. Ota-ona uchun aliment undirish. Mulkni bo'lish. Da'vo muddati. Ota-ona va bolalarning huquqlari. Bola huquqlari. Otalikni belgilash. Bolaning mulkiy huquqlari. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish. Mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ta'minoti.

Farzandlikka olish tushunchasi. Farzandlikka olingan bolalar huquqlari. Farzandlikka olishni sir tutish. Farzandlikka oluvchilarga talablar. Vasiylik va homiylik belgilash. Vasiy yoki homiy etib tayinlash mumkin bo'lmaganlar shaxslar. Vasiy yoki homiylikka olish muddati. Tutingan oilaga berish. CHet ellik fuqarolar bilan oilaviy munosabatlarga kirishish.

### 9-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Mehnat huquqi va tadbirkorlik huquqi asoslari" fanining o'qitilishi

Mehnat tushunchasi. Mehnat huquqi predmeti. Mehnat huquqiga oid munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Mehnatdan tashqari mehnat munosabatlari turlari va mohiyati. Mehnat huquqi manbalari. Lokal huquqiy xujjatlar tushunchasi va turlari. Mehnat huquqi kafolatlari.

Mehnat shartnomasi tushunchasi. Mehnat shartnomalarining fuqarolik

| | |
|---|---|
| | shartnomalaridan farqi. Mehnat shartnomasi taraflari. Mehnat shartnomasining mazmuni, shartlari va muddatlari. Ishga qabul qilishni rad etish. Mehnat daftarchasi. Sinov tushunchasi. Mehnat shartnomasi turlari. Ish vaqti tushunchasi. Umumiy ish vaqti. Kalendar ish vaqti. Haqiqatda ishlagan vaqti. Normal, qisqartirilgan va to'liqsiz ish kunlari. Ish vaqti rejimi. Dam olish vaqti tushunchasi va turlari. Ta'tillar. Imtiyozli ta'tillar. Intizomiy javobgarlik tushunchasi. Umumiy va maxsus intizomiy javobgarlik. Intizomiy javobgarlik belgilari. Asossiz javobgarlikka tortishga qarshi kurashish kafolatlari. Intizomiy jazo turlari. Moddiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish tushunchasi. Mehnatni muhofaza qilish vazifalari. Muhofaza qilish ustidan nazorat. Mehnat nizolari. Da'voli va da'vosiz nizolar. YAkka tartibda va jamoa mehnat nizolari. Mehnat nizolarini mehnat nizolari komissiyasida ko'rib chiqish tartibi.<br>*Tadbirkorlik huquqi* predmeti. Tadbirkorlik huquqining asosiy tushunchalari: iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish; iqtisodiy uslublarni qo'llash; xususiy tadbirkorlikning ustuvorligi; narxlarni erkinlashtirish,o'zaro raqobat va h.k. Tadbirkorlik huquqi manbalari. Tadbirkorlik huquqi sub'ektlari va turlari. Fuqarolar (xususiy), jamoa mulkiga asoslangan tadbirkorlik, davlat mulkiga asoslangan tadbirkorlik, aralash mulkka asoslangan tadbirkorlik. Tadbirkor faoliyati sub'ektlari turlari. Aksiyadorlik jamiyatlari, shirkat xo'jaliklari, xo'jalik shirkatlari hamda jamiyatlari va boshqalar. Tadbirkorlik shartnomalari, shartnoma asoslari. Tadbirkorlik shartnomalarining o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlik sohasidagi yuridik javobgarlik. SHartnomaviy javobgarlik. Soliqqa oid munosabatlarda javobgarlik. Bankrotlikni yashirganlik uchun javobgarlik. Monopoliyaga qarshi kurash talablarini buzganligi uchun javobgarlik. Savdo yoki vositachilik bilan noqonuniy shug'ullanish.<br>**10-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Jinoyat huquqi va xalqaro huquq asoslari" fanining o'qitilishi**<br>Jinoyat huquqi fanining predmeti. Ijtimoiy xavfli qilmish. Jinoyat huquqining vazifalari. Jinoyat huquqi prinsiplari. Qonuniylik, qonun va sud oldida tengligi, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi. Jinoyat tushunchasi. Jinoyat qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektdir. Jinoyat belgilari: ijtimoiy xavflilik, g'ayriqonunlik, ayblilik, jazoga loyiqlik. Ijtimoiy xavflilik darajasining to'rtta turi. Jinoyat kodeksi tuzilishi. Jinoyat kodeksi moddalari tuzilishi. Jinoyatlarning uch bosqichi. Tamom bo'lmagan jinoyatlar. Jinoyatning tarkibiy qismlari: ob'ekti, ob'ektiv tomon, sub'ekti, sub'ektiv tomon. Jinoiy javobgarlikda aybsizlik prezupsiyasi. Jazo tushunchasi. Jazo turlari. Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish holatlari. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi. Boshqaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi ishtirokchilar. Oddiy, murakkab, uyushgan guruh va jinoiy uyushma ishtirokchililigi. Qilmishning jinoiyligi istisno etadigan holatlar. Zaruriy mudofaa. Oxirgi zaruriyat. Voyaga etmaganlar javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari. Jazo belgilash yoshi.<br>*Xalqaro huquqning* tushunchasi. Xalqaro huquq rivojlanish tarixi. Xalqaro huquq tarmoqlari. Xalqaro huquq manbalari. BMT Xalqaro sudi statuti 38- |

moddasiga ko'ra manbalar: a) xalqaro konvensiyalar; b) xalqaro odatlar; v) umumiy prinsiplar; g) sud qarorlari; d) olimlar doktrinalari. Asosiy va qo'shimcha (qattiq va yumshoq) manbalar.

Xalqaro huquq tamoyillari tushunchasi. BMT ustavidagi tamoyillar (5 tamoyil). Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risida Deklaratsiya tamoyillari:

1) kuch ishlatmaslik;
2) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
3) davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
4) hamkorlik;
5) suveren tenglik;
6) o'z taqdirini o'zi belgilash;
7) xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish.

Xalqaro huquqiy javobgarlik tushunchasi. Sub'ektlar: davlatlar va davlat nomidan ish ko'radigan mansabdor shaxslar. Xalqaro siyosiy javobgarlik. (Satifikatsiya). Repressaliya. Retorsiya. Moddiy javobgarlik. Restitutsiya va reparatsiya.

**11-mavzu. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida "Konstitutsiyaviy huquq asaslari" fanining o'qitilishi**

Konstitutsiya tushunchasi va mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursining maqsad, vazifalari va uslublari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishning tushunchasi va predmeti, metodologik asoslari, tadqiqot usullari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishning jamiyat va davlat qurilishi sohasidagi ahamiyati. Konstitutsiya to'g'risidagi ta'limotlar. Konstitutsiyaning mohiyati va belgilari. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. Konstitutsiyaning funksiyalari. Konstitutsiya shakllari. Konstitutsiya turlari. Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish tarixi va uni qabul qilishdagi ijtimoiy zarurat. Konstitutsiya loyihasining tayyorlanishi, qabul qilinishi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro huquq normalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ifodasi.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari.* Davlat mustaqilligi tushunchasi. Suverenitet tushunchasi. Davlat, millat va xalq suvereniteti. O'zbekiston Respublikasi suverenitetining huquqiy belgilari. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari: bayroq, gimn va gerb.

Xalq hokimiyatchiligi tushunchasi va mazmuni. Xalq hokimiyatchiligi – davlat hokimiyatini amalga oshirishning asosiy tamoyili sifatida. Xalq hokimiyatchiligida insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi. Xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishning asosiy shakllari. Referendum tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Davlat hokimiyatining bo'linishi tamoyili.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi. Konstitutsiya normalarining amal qilishi. Qonunchilik va huquq tartibot.

| | |
|---|---|
| | Tashqi siyosat tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Jahon hamjamiyati a'zolari bilan o'zaro munosabatlarga kirishishning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi bilan xalqaro tashkilotlar o'zaro munosabatlarining tartibga solinishi.<br>O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari; Davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linish; Saylov tizimi tushunchasi. Fuqarolik tushunchasi. Inson va fuqaro huquqlari. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining huquqiy asoslari. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolarining huquqiy holati.<br>Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasi va turlari. Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasi va turlari. Iqtisodiy - ijtimoiy huquqlar va erkinliklar tushunchasi va turlari.<br>Inson va fuqaro huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hamda boshqa normativ hujjatlar.<br>Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson va fuqarolar huquqlarining tavsifi. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolar huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid qonunlarning umuminsoniy va demokratik tabiati.<br>*O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari.* O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari. Davlat organlarining iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi vazifalari. Mulk shakllari. Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik.<br>O'zbekistonda moliya va pul – kredit tizimi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti. O'zbekiston Respublikasi soliq va bank tizimi.<br>O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari. Jamoat birlashmalari tushunchasi, tashkil etilish tamoyillari va tizimi. Jamoat birlashmalarining huquqiy holati va davlat idoralari bilan munosabatlari.<br>Oila va jamiyat. O'zbekiston Respublikasida oilaning muhofaza qilinishi. Ota-ona va farzandlarning huquqiy holati.<br>O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli va konstitutsiyaviy maqomi.<br>*Davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linish.* Davlatning hududiy tuzilishi tushunchasi. Davlat tuzilishining shakllari.Unitar va federativ davlat tuzilishlari haqidagi ta'limotlar. Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi va uning tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining huquqiy asoslari.<br>O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati.<br>*Saylov huquqi* - fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida. Saylovning ijtimoiy funksiyasi. Aktiv va passiv saylov huquqi. Saylov huquqi tamoyillari: umumiy, teng, saylovlarda ishtirok etish erkinligi, to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz berish. Saylov senzi. O'zbekiston Respublikasida saylov institutining rivojlanish tendensiyasi. Xalqaro huquq normalarining milliy saylov qonunchiligimizda aks etishi. |

| | |
|---|---|
| | **12-mavzu: Mutaxassislik fanlaridan o‘quv amaliyotini tashkil etish**<br>Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda nazariya va amaliyot birligi. O‘quv amaliyotini tashkil etish maqsadi va vazifalari. O‘quv amaliyotini tashkil etish shakllari. O‘quv jarayonining meyoriy hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarining o‘tkazilishini kuzatish va tahlil qilish. Ta’lim muassasasi va talabalar turar joylarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rejalari bilan tanishish, tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida ishtirok etish.<br>O‘quv amaliyotini tashkil etishning mutaxassislik fanlarini o‘rganishdagi ahamiyati. O‘quv-ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish va tashkil etish.<br>**13-mavzu: Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv me’yoriy xujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasih**<br>Mutaxassislik fanlari o‘qituvchisining o‘quv me’yoriy hujjatlari: fanning o‘quv dasturi, fanning ishchi o‘quv dasturi, o‘qituvchining fanga doir taqvim mavzuiy rejasi, ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar ishlanmasi, o‘quv uslubiy majmua.<br>Fanning o‘quv dasturi va ishchi dasturi, ularning o‘zaro aloqadorligi va bir-biridan farqi. Taqvim mavzuiy rejaning tuzilishi va unga qo‘yiladigan talablar. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar ishlanmasini tayyorlashning o‘ziga xos jihatlari. O‘quv uslubiy majmualar, unga qo‘yilayotgan talablar va ularni amalga oshirish metodikasi.<br>**14-mavzu. Yil, semestr bo‘yicha o‘quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish hamda auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish**<br>O‘quv rejasi va o‘quv ishlarini tashkil etishni rejalashtirish. O‘quv ishlarini yillik rejaga mosligini ta’minlash. O‘quv rejasining yil va semestrlarga bo‘linishi va o‘quv fanlari bloklariga taqsimlanishi. O‘quv ishlari va dars taqsimotlari. O‘qituvchilarning o‘quv yuklamasi me’yorlari va unga qo‘yiladigan talablar.<br>Professor o‘qituvchining shaxsiy ish rejasi yillik o‘quv yuklamasi: o‘quv ishlari (kuzgi-bahorgi semestr), ilmiy-uslubiy ishlar, ilmiy tadqiqot ishlari, tashkiliy-metodik ishlar, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar. Ularni o‘quv ishlarini tashkil etilishini to‘g‘ri rejalashtirishdagi ahamiyati. O‘qituvchining reyting daftarchasi. Professor o‘qituvchi faoliyatini baholash reyting tizimining joriy etilishi va uning ahamiyati. KPI mezonlari.<br>Auditoriyadan tashqari ish shakllari va ko‘rinishlari. Mustaqil ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom va unga qo‘yilgan talablar. Mustaqil topshiriqlarni bajarish turlari: referat, esse, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, qo‘shimcha manbalar ustida ishlash, krossvordlar va test savollari tuzish va h.k.<br>Auditoriyadan tashqari ishlarga rahbarlik qilishning zarurligi. Talabalarni auditoriyadan tashqari ishlarga to‘g‘ri yo‘naltirishda rahbar masuliyati. O‘quv va ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish. Kurs va malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilish. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga rahbarlik qilish va talabalarni ma’naviy-targ‘ibot ishlariga jalb etish. |

**15-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish**

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamon talablari va o‘zgarishlarni hisobga olish zarurligi. Axborot sohasidagi yangilanishlar va yangi texnologiyalar. Axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish orqali mutaxassislik fanlarini o‘qitishni yanada takomillashtirish. Multimedia dasturlarining shakllanishi, ularga qo‘yiladigan talablar. Multimedia dasturlarining tuzilishi va uning rang-barangligi.

Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni yot va zararli g‘oyalar ko‘rinishlaridan himoyalashda mutaxassislik fanlarini zamon talabi asosida o‘qitishning o‘rni va ahamiyati. Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va yoshlarga turli xil ta’siri. Dars jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish. Axborot xurujlari, ma’naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, uning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish.

## III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari
2. Oliy va professional ta’lim muassassalarida “mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” dan dars olib borish metodikasi
3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonining tuzilishi va shakllari
4. Mutaxassislik bo‘yicha Davlat ta’lim standarti, o‘quv reja, fan va ishchi dasturlarni o‘rganish
5. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Davlat va huquq nazariyasi asoslari” faning o‘qitilishi
6. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ma’muriy, qishloq xo‘jalik va ekologiya huquqi asoslari” kursining o‘qitilishi
7. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Fuqarolik huquq va moliya huquqi asoslari” fanining o‘qitilishi
8. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Oila huquqi asoslari” fanining o‘qitilishi
9. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Mehnat huquqi va tadbirkorlik huquqi asoslari” fanining o‘qitilishi
10. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida “Jinoyat huquqi va xalqaro huquq asoslari” fanining o‘qitilishi
11. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida “Konstitutsiyaviy huquq asaslari” fanining o‘qitilishi
12. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv amaliyotini tashkil etish
13. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv me’yoriy xujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasih
14. Yil, semestr bo‘yicha o‘quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish hamda auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish
15. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari va interfaol

| | |
|---|---|
| | texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish<br>**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. A.Navoiyning huquqiy g'oyalari, uning tarbiyaviy ahamiyati.<br>2. Farobiyning huquqiy g'oyalarining metodologik muammolari.<br>3. Beruniyning huquqiy g'oyalari, uning tarbiyaviy ahamiyati.<br>4. Xalqaro huquq va islom huquqida inson huquqlari.<br>5. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Davlat va huquq nazariyasi asoslari" faning o'qitilishi.<br>6. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Ma'muriy, qishloq xo'jalik va ekologiya huquqi asoslari" kursining o'qitilishi.<br>7. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Fuqarolik huquq va moliya huquqi asoslari" fanining o'qitilishi.<br>8. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Oila huquqi asoslari" faning o'qitilishi.<br>9. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Mehnat huquqi va tadbirkorlik huquqi asoslari" fanining o'qitilishi.<br>10. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Jinoyat huquqi va xalqaro huquq asoslari" fanining o'qitilishi.<br>11. Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Konstitutsiyaviy huquq asaslari" fanining o'qitilishi.<br>12. Ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirishning nazariy asoslari<br>13. Mutaxassislik fanlaridan o'quv amaliyotini tashkil etish<br>14. Mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasi<br>15. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish<br>16. Mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash<br>17. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Oliy ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarni o'qitishda o'tkazilayotgan islohatlar, muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.<br>18. Yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish<br>19. Auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish<br>20. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" |

fanini o'qitilishida barcha ijtimoiy gumanitar fanlarning aloqadorligi va ilmiy ahamiyati.

21. Tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari.
22. O'zbekiston Respublikasida mehnat huquqi.
23. O'zbekiston Respublikasida oila huquqi.
24. Ekologik javobgarlik tushunchasi.
25. Huquqiy bilimning davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashdagi o'rni.
26. Globallashuv sharoitida inson va huquqlari va erkinliklari
27. Konstitutsiyaviy huquqida xususiy mulk huquqi.
28. Ahmad Donishning davlat to'g'risidagi tushunchalarining bugungi kundagi ahamiyati.
29. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro tashkilotlar faloiyatining kontstitutsiyaviya asoslari.
30. Yangi O'zbekiston Respublikasining Ekologik siyosati.
31. Yuridik javobgarlik va uning turlari.
32. Qonuniylik va huquqiy tartibot
33. Hozirgi zamonning asosiy huquqiy tizim va oilalari.
34. Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, metodi va vazifalari.
35. O'zbekiston hududida qadimgi davlatlarning vujudga kelishi va huquqiy munosabatlarning shakllanishi qadimgi sharq, yunoniston va rim davlati va huquqi
36. Arab xalifaligining davlati va huquqi. IX–XIII asrlarda O'zbekiston hududida davlat va huquq
37. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'zbekiston hududida davlat va huquq
38. Amir temur davlati va huquqi
39. O'zbek xonliklarining davlat tuzumi va huquqi
40. Yangi davr Buyuk Britaniya davlati va huquqi
41. Yangi davr Fransiya davlati va huquqi
42. Amerika qo'shma shtatlari davlati va huquqi
43. Rossiya podsholigi mustamlakachiligi davrida O'zbekiston hududida davlat va huquq.
44. O'zbekiston respublikasida huquqiy davlat va Fuqarolik jamiyatining shakllanishi
45. Huquqiy hulq-atvor va huquqbuzarlik.
46. Mualiflik huquqi konstitutsiyaviy asoslari.
47. Huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlikni oshirishda huquqiy tarbiyaning o'rni.
48. Atrof muhitni himoya qilishda ma'muriy-huquqiy muammolar.
49. Madaniyat, milliy turmush tarzi va huquqiy ong.
50. Oila huquqining tarbiyaviy ahamiyati.
51. Qonun ustuvorligi – huquqiy savodxonlik belgisi.
52. Vasiylik va homiylik hamda patronat institutlarining voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilishda tutgan o'rni.
53. Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning muhim omili.
54. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat O'zbekistonda huquqiy davlatning barpo etilishi.

| | |
|---|---|
| | 55. Yangi O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotning o'ziga xos xususiyatlari<br>56. Nodavlat notijorat tashkilotlari tizimini rivojlantirish konstitutsiyaviy asoslari.<br>57. Demokratik institutlarni rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o'rni va ahamiyati<br>58. Jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va yangilashning konstitutsiyaviy asoslari.<br>59. Inson ma'naviy va ahloqiy kamolotini shakllantirishda fan va ta'lim integratsiyasining o'rni.<br>60. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning roli.<br>61. Yangi O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish va ijtimoiy davlat barpo etishning nazariy metodologik masalalari.<br>62. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurishning konstitutsiyaviy asoslari.<br>63. Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash masalalari.<br>64. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosi.<br>65. Yangi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklari ta'minlanishining konstitutsiyaviy asoslari.<br>66. Nodavlat va jamoat tashkilotlarning O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishdagi o'rni va ahamiyati.<br>67. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli.<br>68. Yangi O'zbekiston Respublikasida parlament islohotlarining zaruriyati, tajriba va muammolar.<br>69. Yangi O'zbekiston Respublikasida sud islohotlarining yangi bosqichi.<br>70. Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari.<br>71. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish<br>72. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy – siyosiy islohotlar.<br>73. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqot tamoyillari va metodlari.<br>74. Ma'naviy dunyodarashning shakllantirishda "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" fanining o'rni va roli. |
| 3. | **IV. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida magistr:**<br>• mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o'quv amaliyoti, mutaxassislik fanlarini o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim |

| | |
|---|---|
| | texnologiyalari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***; **(bilim)**<br>• mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, mutaxassislik fanlarining o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash, mutaxassislik fanlarini o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash; ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo'llash kabi ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***.<br>• mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari, mutaxassislik fanlari ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, mutaxassislik fanlarini o'qitish metod va vositalarining ilmiy asoslari, mutaxassislik fanlarini o'qitishning axborot texnologiyalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishning tashkiliy shakllari, mutaxassislik fanlarini o'qitish texnologiyalarining pedagogik asoslari, mutaxassislik fanlaridan o'quv amaliyotini tashkil etish, o'quv-ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish va tashkil etish, mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).*** |
| 4. | **V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Erkayev A.E. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. - 480 b.<br>2. Tolipov O.Q., Anarkulova G.M. Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2021. –B. 248.<br>3. Ismailova Z.K. Maxmudov P.M. Ergashev O.K. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. 2020 . –B. 262.<br>4. Jumaniyozov X.S., Nigmanova U.B. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. - T., 2020<br>5. Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021. |